MAKTABGACHA TARBIYA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR MUASSALARIDA STOMATOLOGIK KASALLIKLARINI OLDINI OLISH MASALALARI

Mansurova Ferangiz Madamin qizi
Buxoro davlat tibbiyot instituti
Stomatologiya yo`nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23563197

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda tish kasalliklarining oldini olish samaradorligi, stomatologik kasalliklarning tarqalishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning qisqa tahlili, stomatologik kasalliklarning ortib borishi bir qancha omillar haqida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Gigiyena, tibbiy pedagogik ishlar, stomatologik patologiya, distrofik o'zgarishlar, gerontologik o'zgarishlar, reabilitatsiya, ijtimoiy faollik.

Аннотация: В данной статье представлена информация об эффективности профилактики заболеваний зубов у детей, краткий анализ исследований распространенности заболеваний зубов, а также несколько факторов, способствующих увеличению числа таких заболеваний.

Ключевые слова: Гигиена, медико-педагогическая работа, стоматологическая патология, дистрофические изменения, геронтологические изменения, реабилитация, социальная активность.

Abstract: This article provides a brief analysis of research on the prevalence of dental diseases and the effectiveness of their prevention in children, along with information regarding various factors contributing to the rising incidence of dental conditions.

Keywords: Hygiene, medical-educational activities, dental pathology, dystrophic changes, gerontological changes, rehabilitation, social activity.

Kirish. Yangi O'zbekistonning ta'lim tizimida ham kompleks rivojlantirish, tibbiyot sohasida ham zamonaviy bilimli malakali kadrlar tayyorlash uchun davlat tomonidan maqsadli sarmoyalar sog'liqni saqlashga yo'naltirilmoqda. Ayni vaqtda bolalar stomatologiyasi xizmati kundan kunga yangidan shakllanib bormoqda. Respublikada miqiyosidagi o'tkazilayotgan tibbiy sayyor qabullar bunga misoldir. Shu maqsadda tibbiyot sohasida talabalarni yangi o'quv darsliklari bilan ta'minlash ham bugungi kunning asosiy vazifasidir

Bolalarga yoshlikdan foydali ko'nikma va odatlarni singdira borish, ya'ni sog'lom turmush tarzi qoidalarini o'rgatish, sog'lom avlodni yetishtirishda muhimdir. Gigiyenik tarbiya olib borishda sanitariya-maorif ishlariga e'tibor beriladi va bolalar og'iz bo'shlig'ini toza tutishga o'rgatiladi.

Bolalarda tish kasalliklarining oldini olish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktablarda pediatr tomonidan olib boriladigan sanitariya-maorif ishlarini to'g'ri tashkil etish kerak bo'ladi. Sanitariya-maorif ishlari sog'lom turmush tarzi haqidagi tibbiyot bilimlarini tashviqot qilish, sog'liqni saqlash, kasalliklarning oldini olish yo'llarini tushuntirishdan iborat.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Tibbiyot hodimlari, xususan stomatolog vrachlar yoki pediatrlar, maxsus o'qitilgan tibbiy hamshiralar bolalar o'rtasida, tarbiyachilar, o'qituvchilar, va ota-onalar o'rtasida suhbat o'tkazishsa, so'zga chiqib, ma'ruza qilishsa, sanitariya-maorifi ishlarining samarasi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bulardan tashqari, sanitariya maorifiga doir maxsus adabiyotlar, varaqalar, ko'rgazmalar, slaydlar, diafilm namoyishi va boshqa shu kabilar ham tashkil etiladi, biroq bularning ta'siri kamroq bo'lsada, ularning ikkalasi bir-biriga o'zaro bog'liqdir.

Asosiy qism. Targ'ibot ishlarini birgalikda olib borgan ma'qul. I.G.Paxomova (1982), YE.V. Borovskiy (1986) va boshqalarni fikriga ko'ra bunda to'rtta zveno: ishni olib borayotgan vrach, o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar va bolalarning o'zlari qatnashishlari lozim. "Sanitariya-maorif ishlarini birinchi navbatda o'qituvchilar va bolalar muassasalaridagi tibbiy xodimlar boshlashlari kerak.

Tibbiy pedagogik ishlar rejasiga quyidagi savollarni kiritish mumkin:

* sut tishlari va doimiy tishlarning shakllanish xususiyatlari, yetilishi va funksiyalari;
* tishlarning yorib chiqish muddatlari;
* bolalarda tish kariyesi va uning asoratlari;
* tish cho'tkasi va tish pastasini turini tanlash;
* tishni qaysi yoshdan tozalash kerak, tishni tozalash qoidalari;
*tishlarning sog'lom bo'lishida ovqatlanishning ahamiyati;
* milk va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari;
*stomatologiya kasalliklarining oldini olishda og'iz bo'shlig'ini toza tutishning ahamiyati.

Suhbat davomida stomatologiyada profilaktikaning maqsad va vazifalarini tushintirish lozim. Rejalashtirilgan tadbirlar aniq shaklda bayon etilishi kerak. Ushbu profilaktika tadbirlarining yaxshi natija va samara berishi uchun ular yuqoridagi tadbirlarni to'la bajarishlari, sinchkov bo'lishlari lozimligi uqtiriladi".

Shunday qilib o'yin jarayonida bolalarga qanday qilib tishni tozalash kerakligini tushintirish va tozalab ko'rsatish, keyin bu ishga o'rgatish kerak, shunda bolalar tish tozalash yo'llarini o'zlari mustaqil o'rganib oladilar.

YE.I. Borovskiy (1986) og'iz bo'shlig'ini toza tutish to'g'risida bolalarga 7 ta mustaqil mashg'ulotni (15 minutdan) o'rgatishni tavsiya etadi. Bu ishda yaxshi natijalarga erishish uchun mashg'ulot olib boriladigan joyni tanlay bilish, maktabgacha tarbiya muassasalarida og'iz bo'shlig'i gigiyenasi burchagini tashkil etish muhim. O'yin olib boriladigan xonani bezash, unda katta-katta o'yinchoqlar, jag' modellari, suratlar, plakatlar va tishni tozalash sxemalari osilgan bo'lishi kerak. Xonada bir nechta rakovina, gigiyena vositalarini va o'yinchoqlarni saqlash uchun shkaflar va boshqa vositalar bo'lishi kerak.

"Mashg'ulotlar quyidagi tartibda olib boriladi:

1-mashg'ulot davomida bolalarning og'iz bo'shlig'i stomatologik vositalar (oyna, zond) yordamida ko'rikdan o'tkaziladi. Ko'rik paytida atrofga guruh bolalari yig'ilib turishadi. Biror bolani tanlab olib, ularga og'zidagi sog' Hamda kasal tishlari, undagi qarashlar ko'rsatiladi. So'ngra bolalarga ularni oldini olish hamda yo'qotish yo'llari o'rgatiladi.

2-mashg'ulot paytida bolalarga OG'IZNI chayish yo'llari ko'rsatiladi va mashg'ulot so'ngida ularni qay darajada o'zlashtirilganligi tekshirib ko'riladi.

3-mashg'ulot davomida bolalarga tish cho'tkasi, uni qanday ishlatish haqida qisqacha so'zlab beriladi. Mashg'ulot oxirida bolalarning qo'liga turlituman tish cho'tkalari tutqazilib, ularning tuzilishi qisqacha tushintiriladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

4-mashg'ulot bolalarga tish cho'tkasi va modellar berilib, uni tozalash so'raladi.

5-mashg'ulot davomida bolalar o'z tishlarini tish cho'tkasi yordamida pastasiz tozalaydilar. So'ngra cho'tkalarni yuvib, boshchasini yuqoriga qaratib stakanlarga solib qo'yishadi. Bu vazifa bir necha marotaba takrorlanib, mustahkamlanadi.

6-mashg'ulot uy vazifasi sifatida beriladi. Uyda bola ota —ona nazoratida kechqurun tish cho'tkasi yordamida pastasiz tishni tozalaydi.

7-mashg'ulot paytida bolalarga tish cho'tkasiga pasta surtilib, o'rgatilgani bo'yicha tishlarni tozalashlari so'raladi. Kechqurun ota — ona va ertalab murabbiya nazoratida bolalar tish cho'tkasi va pasta vositasida tishlarini tozalashadi. So'ngra cho'tkalab yuvilib, og'iz chayiladi". Har bir mashg'ulotdan so'ng yo'l qo'yilgan kamchiliklar aytilib, qanday bajarilishi kerakligi qayta ko'rsatiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (6-10 yosh) uchun mashg'ulot xilma-xil bo'lishi zarur. Bu yoshdagi bolalar asosan stomatolog vrachlar bilan uchrashgan, og'izni toza tutishni biladilar, tish kariyesi dardini bir-muncha tortgan bo'ladilar. Ularning nerv sistemasi bir muncha rivojlangan, ancha tushinadigan bo'lib qolishgan.

"Boshlang'ich maktablarda stomatologiyadan salomatlik darslarini 3 qismga bo'lib-sanitariya-maorif ishlari va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha olib borish mumkin. Mashg'ulotlar maxsus jihozlangan gigiyena sinfida o'tkazilishi shart. Gigiyena sinfida 15-20 ta yuvinadigan rakovina (tepasiga ko'zgular o'rnatilgan bo'lishi kerak), stellaj-shkaflar (shaxsiy gigiyena vositalarini saqlash uchun), o'quvchilar uchun partalar, stomatologik o'rindiq profilaktika vositalari bilan, dori-darmonlar turadigan stolcha bo'lishi kerak. Sinf plokatlari, sxemalar, jag' mulyajlari bilan jihozlangan bo'ladi. Bulardan tashqari, xonada slayda va filmlarni ko'rsatadigan ekran va apparaturalar bo'lishi zarur.

Xulosa. Maxsus ma'lumotga ega bo'lgan stomatolog-vrach, pediatr, yoki tibbiy hamshira birinchi darsda bo'ladigan suhbat chog'ida, tishlarning odam hayotidagi ahamiyati va vazifasi, tuzilishi, qanday tishlar mavjudligi va ularning qay tarzda ishlashi, yorib chiqishi hamda tushib ketishi haqida ma'lumot beradi. Tishlarning nima sababdan tushib ketishini bolalarga tushuntirishlari lozim.

Tish-jag' sistemasining rivojlanishida ovqatlanishning, shuningdek uglevodli ovqat qoldiqlarining kasallik keltirib chiqarishdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tish ayniqsa muhimdir. Ayni paytda bolalarga og'iz bo'shlig'ini toza tutish nechog'li muhim ekanligi, stomatolog vrachga qachon va nima uchun murojat qilish zarurligini tushuntirish lozim. Ikkinchi darsda og'iz bo'shlig'ini toza tutishda qanday narsalar va vositalardan foydalanish mumkinligi haqida suhbat o'tkaziladi". Bolalarga tish cho'tkaning tuzilishi ko'rsatiladi, undan qanday foydalanish kerakligi va saqlash qoidalari tushintiriladi. Bolalarga tish pastasi yoki poroshokdan qanday foydalanish kerakligi ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Borovskiy Ye.V. Terapevtik stomatologiya. — M.: Meditsina, 1988. — 559 bet.
2. Bajanov N.N. Stomatologiya — O TM uchun qo'llanma — Moskva: GEOTAR-M ED, 2002. -316 bet - 7,63Mb.
3. Bazikyan E.A. va hammual. Propedevtik stomatologiya: qo'llanma — M.: GEOTAR-Media, 2010. - 768 bet.: il.
4. Barer G.M., Zoryan Ye.V., Agapov VS., Afanasev V.V. va hammual. Stomatologiyada ratsional farmakoterapiya: Praktik shifokorlar uchun qo'llanma; — M.: Litterra, 2006. — 568 bet.
5. Borovskiy Ye. V. Terapevtik stomatologiya. Tibbiyot OTM talabalari uchun o'quv qo'Uanma. — M.: «Tibbiyot ma'lumotlar agentligi». 2004. —840 bet. — 11,2 Mb.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

6. Borovskiy Ye.V. Stomatologiya. Amaliy mashg‘ ulotlar uchun o ‘quv qo‘llanma. — M.: Tibbiyot, 1987 — 528 bet.
7. Borovskiy Ye.V., Ivanov VS., Maksimovskiy Yu.M., Maksimovskaya L.N. Terapevtik stomatologiya, — Moskva: Tibbiyot, 2002. — 736 bet, 11,4 Mb.
8. Gorbunova I.L. Odam tishining klinik anatomiyasi. 0 ‘quv qo‘llanma. — M.: Tibbiyot kitobi, 2006. - 136 bet. - 2,50 Mb.
9. Kamilov X.P., Mamedova F.M. «Davolash stomatologiyadan» retseptura spravochnigi, 1995.
10. Kuzmina E.M. Stomatologik kasalliklar profilaktikasi. 0 ‘quv qo‘llanma. Tonga-Print, 2001. — 216 bet. 14. Kuryakina N.V M. Bolalar yoshidagi terapevtik stomatologiya.: Tibbiyot kitobi, N. Novgorod: Nashr N G M A, 2001. — 744 bet.
11. Rizayev J.A. Stomatologiyada qo‘llanuvchi dori vositalari. Toshkent. — «Voris nashriyot», 2012.
12. Safarov T.X., Raxmonov X.Sh., Safarov M.T. Tish to'qimalarining nokaries kasalliklari, — Toshkent: 2011.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.